



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI



A. AVLONIY NOMIDAGI  
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI



JIZZAX VILOYATI  
XTXQTMOHM

**“TA'LIM TIZIMIDA FAN, INNOVATSIYA VA  
RAQAMLI IQTISODIYOTNI  
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI”**  
Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi  
(2021-yil, 20-noyabr)

# MATERIALLARI

**“PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF  
SCIENCE, INNOVATION AND THE DIGITAL  
ECONOMY IN THE EDUCATION SYSTEM”**  
International scientific and practical  
online conference  
(November 20, 2021 y)

# MATERIALS



UDK 370.1:33:681.142.37

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**

**JIZZAX VILOYATI XALQ TA’LIMI  
XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIIY MARKAZI**

**«ANIQ VA TABIIY FANLAR METODIKASI» KAFEDRASI**

**“TA’LIM TIZIMIDA FAN, INNOVATSIYA VA RAQAMLI IQTISODIYOTNI  
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI”**

**Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi  
(2021-yil, 20-noyabr)  
MATERIALLARI**

**“PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF SCIENCE, INNOVATION AND  
THE DIGITAL ECONOMY IN THE EDUCATION SYSTEM”**

**International scientific and practical online conference  
(November 20, 2021 y)  
MATERIALS**

**«ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ НАУКИ, ИННОВАЦИИ И ЦИФРОВОЙ  
ЭКОНОМИКИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ»**

**Международная научно-практическая онлайн-конференция  
(ноября 20, 2021 г)  
МАТЕРИАЛЫ**

**JIZZAX – 2021**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagi 78-f-sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida 2021-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasiga asosan, Jizzax viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazida 2021-yil 20-noyabr kuni **“Ta’lim tizimida fan, innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari”** mavzusidagi Xalqaro ilmiy anjumani o‘tkaziladi.

Mazkur konferensiyani tashkil etishdan maqsadimiz tadqiqotchilarning, soha mutaxassislarining, ta’lim sohasida ishlayotgan pedagoglarning ilm-fanni rivojlantirish borasidagi islohotlarini muhokama qilish, dolzarb masalalarni hal qilishning samarali usullarini ishlab chiqishga taklif etishdir. Biz uchun muloqot, tajriba almashish va hamkorlik muhim.

The purpose of organizing this conference is to discuss the reforms in this field of science among researchers, specialists in the field, teachers working in the field of education in the development of science, to invite them to develop effective ways to address pressing issues. Communication, exchange of experience and cooperation in this area are important for us

Наша цель, организации данной конференции - обсудить реформы исследователей, специалистов в данной области, учителей, работающих в сфере образования, в развитии науки, предложить им разработать эффективные способы решения актуальных проблем. Для нас важно общение, обмен опытом и сотрудничество

<b>Tahrir hay’ati:</b>	
<b>A.Sh.Xolmurodov</b>	Iqtisod fanlari nomzodi, Jizzax viloyati XTXQTMOHM direktori
<b>Sh.D.Abdurashidov</b>	Jizzax viloyati XTXQTMOHM direktor o‘rinbosari
<b>J.A.Mardonqulov</b>	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrası mudiri v.b
<b>X.Inatov</b>	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrası dotsenti
<b>D.K.Norbekov</b>	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrası katta o‘qituvchisi
<b>M.M.Xolboyeva</b>	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrası katta o‘qituvchisi
<b>T.Sh.Avazov</b>	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrası katta o‘qituvchisi
<b>O.U.Ergashev</b>	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi
<b>Sh.A.Egamqulov</b>	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi
<b>M.M.Jabborov</b>	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi
<b>B.N.Qodirov</b>	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi
<b>F.M.Alimov</b>	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi
<b>Texnik muharrir:</b>	
<b>D.X. Inatova</b>	“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrası kabinet mudirasi

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldirlar.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Jizzax viloyat xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi Ilmiy-metodik kengashining 2021-yil 28-oktyabrdagi 6-sonli yig‘ilishi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

**UDK 370.1:33:681.142.37**

## MAKTABGACHA TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH –DAVR TALABI

*Berkinova Charos Islomovna JDPI "Maktabgacha ta'lim" fakulteti, "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası o'qituvchisi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati ochib berilgan. Ta'lim-tarbiya tizimida yetuk kadrlarga bo'lgan ehtiyoj va ularga qo'yilayotgan talablar bayon qilingan. Shuningdek pedagog olimlarning "innovatsiya", "innovatsion faoliyat", "pedagogning innovatsion faoliyati" tushunchalariga berilgan ta'riflari o'rganilgan. O'rganilgan manbalar asosida pedagogning innovatsion faoliyatiga doir fikrlar keltirilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** maktabgacha ta'lim va tarbiya, pedagog, innovatsiya, innovatsion faoliyat, motivatsiya, ta'lim-tarbiya jarayoni, ilg'or texnologiyalar, ixtrolar, loyihalar, intellektual salohiyat, raqabatbardosh kadrlar, islohot, prinsip, tashabbus, yangilik, g'oya, avlod, faoliyat, tarbiya.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье раскрывается значение использования инновационных технологий в дошкольном образовании и воспитании. Сформулированы потребности и требования к зрелым кадрам в системе образования и воспитания. Также исследованы определения ученых-педагогов к понятиям "инновация", "инновационная деятельность", "инновационная деятельность педагога". На основе изученных источников излагаются идеи инновационной деятельности педагога.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** дошкольное образование и воспитание, педагог, инновация, инновационная деятельность, мотивация, учебно-воспитательный процесс, передовые технологии, ихтро, проекты, интеллектуальный потенциал, конкурентоспособные кадры, реформа, принцип, инициатива, инновация, идея, поколение, деятельность, воспитание.

### ANNOTATION

This article reveals the importance of using innovative technologies in preschool education and upbringing. The needs and requirements for mature personnel in the system of education and upbringing are formulated. The definitions of scientists-teachers to the concepts of "innovation", "innovative activity", "and innovative activity of a teacher" are also studied. Based on the studied sources, the ideas of innovative activity of the teacher are presented.

**KEYWORDS:** preschool education and upbringing, teacher, innovation, innovative activity, motivation, educational process, advanced technologies, their projects, intellectual potential, competitive personnel, reform, principle, initiative, innovation, idea, generation, activity, education.

Xalqimizning barcha ezgu niyatlari markazida  
farzandlar kamoli – ularni ham jismoniy,  
ham ma'naviy jihatdan sog'lom qilib o'stirish,  
baxt saodati, farovon keljagini ko'rish, dunyoda hech  
kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi. [1,3-bet]  
Islom Karimov

Darhaqiqat, har qaysi davlat, har qaysi millat istiqbolda farzandlari kamolini ko'rishni istaydi. Bu istak ularni ezgu amallarga boshlaydi. Ana shunday ezgu amallardan biri maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardir. Bu islohotlar mazmunining maqsadi ham barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etilmoqda. Bu sohani isloh qilish bilan birga soha pedagoglarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish, ularning kreativligini oshirish davr talabi hisoblanadi. Bu borada birinchi prezidentimiz I.Karimov «Bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri eng avvalo, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liq»[2]-degan edi.

Bugungi kun esa pedagog kadrlardan nafaqat yuqori malakali va ongi mutaxassis bo'lishni, balki ilm-fan va intellektual salohiyat sohasida zamonaviy kadrlar va yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lish zarurligi[3] talab etilmoqda.

Shu nuqtai-nazardan maktabgacha ta'lim va tarbiya tashkilotlari pedagoglari ham kreativligini ishga solib, ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishi kerak bo'ladi. Ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar o'z-o'zidan ta'lim tizimiga kirib kelmaydi. Bu pedagog faoliyati va uning motivatsiyasiga bog'liq jarayon hisoblanadi. Pedagog o'z faoliyatini o'zgartirmay turib, uning mas'uliyati va faolligini oshirmasdan, ta'limda bir qadam ham oldinga siljib bo'lmaydi. Akademik A.N.Leontev «Dunyoni idrok qilishning birinchi sharti – faoliyat, ikkinchi sharti – tarbiyadir. Faoliyat jarayonida kishilarning qobiliyati, bilim va malakalari shakllanadi, demak, faoliyat-ijtimoiy hodisa bo'lib, hayotiy kurashning asosiy shartidir»[4] ,- deb takidlaydi.

Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish - pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarining paydo bo'lishi natijasida pedagogning kasbiy faoliyatida ham yangi yo'nalish «o'qituvchining innovatsion faoliyati» tushunchasi paydo bo'ldi. «Innovatsion faoliyat» tushunchasini tahlil qilar ekanmiz, pedagogik tajriba-sinov faoliyatining 3 ta asosiy shaklini ajratish mumkin: xususiy tajriba, tajriba-sinov ishi, o'qituvchining innovatsion faoliyati.

Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qancha ko'p bo'lsa, o'qituvchi xususiy eksperimentni shuncha yaxshi tushunadi. Innovatsion faoliyat – pedagogning o'z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi.

Pedagog innovatsion faoliyatning sub'ekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo'llash hamda ommalashtirishda ishtirok etadi. Innovatsion faoliyat tushunchasi innovatsiya, innovatsion jarayon kabi tushunchalar bilan chambarchas boqliq. Shu sababli bu tushunchalar mazmunini izoqlamasdan turib, innovatsion faoliyat mazmunini anglash mumkin emas. Innovatsiya -amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy sub'ektlarning harakat tizimidir. Bu g'oya nazariyasi mohiyatining yaratilishiga nisbatan turli yondashuvlar va fikrlar mavjud bo'lib, uning mohiyati borasida fanda yagona fikr mavjud emas. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib,

ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi, shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya-ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir.

Bugun ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash maqullanmoqda:

1. Faoliyat yo'nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi).

2. Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra (radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan).

3. O'zgarishlar ko'lamiga ko'ra (lokal, modulli, tizimli).

4. Kelib chiqish manbaiga ko'ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

Innovatsiyaning maqsadi-sarflangan mablag' yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli-tuman o'z-o'zidan paydo bo'ladigan yangiliklardan farqli o'laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o'zgarishlar mexanizmini tashkil etadi. Innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. Innovatsion jarayon deb-innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amalga oshirish jarayoniga aytiladi. Ta'lim jarayonidagi innovatsion o'zgarishlar, ta'lim tizimiga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita pedagog faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim tizimidagi innovatsiyalar, ularni amaliyotga kiritish, innovatsion jarayonlarni boshqarishni tahlil qilish orqali innovatsion faoliyat tushunchasini ta'riflash imkoniyati paydo bo'ldi. Innovatsion faoliyat - pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. «Innovatsion faoliyat – bu yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi, yohud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorining mavjud me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir»-deb ta'kidlaydi, V.I.Slobadchikov.

Innovatsion faoliyat bu amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy sub'ektlarning harakat tizimi bo'lib, u ma'lum doiradagi muammolarni yechish qobiliyatigina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo'lishdir. Pedagog innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o'quv-tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etishdan iboratdir. Innovatsion faoliyat – uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo'lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi.

Pedagogning innovatsion faoliyati xususiyatlarini o'rganib chiqqan pedagog olimlar fikrlariga tayangan holda, quyidagilarni innovatsion faoliyatning asosiy belgilari deb hisoblash mumkin:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo'llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish.

Pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlash muammosiga murojaat etish, jamiyatda innovatsion jarayonlar dinamikasining o'sib borayotganligini tushunish

natijasida vujudga keldi. Uning tahlili faqat fan va texnika erishgan zamonaviy yutuqlardan foydalanishni o'z ichiga olmasdan, balki yangiliklarni izlash, yaratish, moslashtirish, tatbiq etish va olingan natijalarni qayta tekshirish kabi jarayonlarni ham qamrab oladi. Innovatsion faoliyatning tuzilishini o'rganib chiqqan olimlardan biri V. Slastenin uni quyidagicha tuzilishga ega deb ko'rsatib o'tadi:

Innovatsion faoliyatning tuzilishi-ijodiy yondashuv, ijodiy faollik, yangilikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash, muomala madaniyati.

Innovatsion faoliyatning darajalari: reproduktiv, evristik, kreativ bo'lishi mumkin».

Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar, tom ma'noda ta'lim-tarbiya jarayoniga kirib keladi. Shu sababli ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonga kiritish 4 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Muammoni tahlil asosida aniqlash.
2. Mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash.
3. O'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish.
4. O'zgarishlarni amalga oshirish.

Demak, pedagogni innovatsion faoliyatga tayyorlashdan maqsad-uning yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o'z ustida ishlash ko'nikmasi va malakasini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish malakasini takomillashtirishdan iborat.

Xulosa qilib aytganimizda, innovatsion faoliyat – bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba – sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan maxsulot yaratish bo'lib, uning progmatik xususiyati shundaki, u g'oyalar maydonida ham va alohida bir sub'ektning harakat maydonida ham amalga oshirilmaydi, balki bu faoliyatni amalga oshirish tajribasi kishilar hayotida hammabop bo'ladigan holdagina haqiqiy innovatsion faoliyat hisoblanadi. Innovatsion faoliyatning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi bo'lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi-loyihaga, loyihani – texnologiyaga aylantirishga yo'naltirilgan faoliyatdir. Innovatsion faoliyatda ilmiy tasavvurlar akademik ilm mantiqi bo'yicha to'qilmaydi, balki rivojlanish jarayonining modifikatsiyalari qo'llab-quvatlanishi natijasida rivojlanayotgan amaliyot mulohazasidan paydo bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Niyozov G., Ahmedov Q., Tojiboev Q. Sharq allomalari va ma'rifatparvar adiblarning barkamol avlod tarbiyasiga oid ma'naviy – ahloqiy qarashlari. T.: "O'zbekiston", 2010, 3-bet.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyoti poydevori.:T, "Sharq" nashriyot-matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1997, 56-bet.
3. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2017 yil 22 dekabr. <https://www.xabar.uz/siyosat/>
4. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/download/79452>
5. Zakirova F va boshq. Elektron o'quv-metodik majmualar va ta'lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo'llanma, T.: OOMTV, 2010. – 57-bet.
6. Uzluksiz ta'lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy muammolari. Ilmiy konferensiya materiallari. Samarqand, 2017.

7. Berkinova Ch. maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim faoliyatini to'g'ri tashkil etishning mazmuni //Мaktabgacha таълим журнали. – 2021.

## **TA'LIM JARAYONIDA O'QITISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

*Xamdamova X.SH.- katta o'qituvchi Jizzax politexnika instituti*

*Annotasiya: Ushbu maqolada o'qish jarayonini tashkil etuvchi o'qituvchi shaxsning psixik rivojlanishi zamonaviy konsepsiyasini bilishi muhim ahamiyatga ega ekanligi, psixologiya shaxsning psixologik xususiyati muhit, o'qitish va tarbiya ta'sirining mahsulotidan iborat, deb hisoblashi xususidagi fikrlar bayon etilgan..*

*Kalit so'zlar: shaxs, konsepsiya, psixik rivojlanish, o'qish*

O'qitish –pedagogik jarayon bo'lib, o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida fan asoslaridan sistemalashtirilgan bilimlarni amalda qo'llanishi bo'yicha mahorat va malakalarni oladilar. O'qitish – ikki tomonlama jarayon bo'lib, u o'zida o'qituvchining faoliyatini (o'qitishni) va o'quvchilar faoliyatlarini (o'rganishni) mujassamlashtiradi. O'qitishnin natijasi bo'lib, umumiy ta'lim olish, o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularni hayotga tayyorlash hisoblanadi.

O'qituvchiga o'quv jarayonini to'g'ri, ilmiy tashkil etish uchun chuqur bilimlar zarur bo'lib qolmay, balki o'qitish jarayoni va bilimlarni o'zlashtiishning umumiy psixologik qonuniyatlarini, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishni, fikrlashni o'stirishni ham bilishi zarur. O'qitishda tarbiyaviy masalalarni muvaffaqiyatli hal etish shaxs shakllanish jarayonining psixologik qonuniyatlarini, bolalarning yosh xususiyatlari va psixologik rivojlanishi individual, iroda va his-tuyg'u sifatlarini, bilim faoliyati va aqliy rivojlanish xususiyatlarini bilishni talab etadi.

O'qish jarayonini tashkil etuvchi o'qituvchi shaxs psixik rivojlanishining zamonaviy konsepsiyasini bilishi muhim ahamiyatga ega. Psixologiya shaxsning psixologik xususiyati muhit, o'qitish va tarbiya ta'sirining mahsulotidan iborat, deb hisoblaydi. Ular butunlay tashqaridan ongga kiritiladi, muhit o'qitish va tarbiya ta'sirida “Ontogenezda ularning shakllanishi sodir bo'ladi”

Iste'dod va qobiliyat, temperament va xotiraning o'ziga xos xususiyati, xarakterning o'ziga xosliklari kabi nerv, irsiyat va muhitning ishtiroki tan olinadi.

Psixologiya insonning psixologik xususiyatlari ko'p jihatdan hayot vaqtida shakllanishida va rivojlashida boshqaruvchi bo'lsa, hal qiluvchi rolni insonning ijtimoiy tajribasi, uning hayoti va faoliyatining sharoitlari, o'qitish va tarbiya o'ynaydi. Psixik rivojlanishida maxsus rolni “jamiyat talablariga javob beradigan, shaxsning ma'lum sifatlarini shakllantirish maqsadida katta avlodning kichik avlodga ongli maqsad sari yo'naltirilgan ta'sir jarayoni” sifatidagi o'qitish va tarbiya o'ynaydi. Psixologlar inson aktiv mavjudod sifatida o'zining xususiy shaxsiyatini o'zi ongli ravishda o'zgartira oladi, ya'ni o'zini-o'zi tarbiyalash bilan shug'ullana oladi, degan holatni tan olishga asoslanadi. Ammo o'zini-o'zi tarbiyalash jarayoni atrof-muhitdan ajralgan holda olib borilmaydi. O'zini-o'zi tarbiyalash atrof-muhit bilan aktiv o'zaro ta'sir jarayonida bo'ladi.

Psixik rivojlanishning muhim shart-sharoiti insonning tabiiy xususiyatlari hisoblanadi. Qobiliyatlar rivojlanishining tabiiy shart-sharoiti ayrim anatomo-fiziologik xususiyatlarning mavjudligidir. Qobiliyatlar inson hayoti va faoliyati, o'qishi va tarbiyasining sharoitlari ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi. Ammo bu bir xil sharoitlarda hamma insonlarda intellektual qobiliyatlar bir xilda bo'ladi, degan ma'noni bildirmaydi. Psixik rivojlanish yosh bolaning biologik yetilishiga, ayniqsa, miyaning rivojlanishiga bog'liqligi aniqlangan. Bu faktni ta'lim-tarbiya ishlarida hisobga olish zarur.



<i>А.Очилов</i>	
Во`lajak chempionlarni tarbiyalashda yangi metodlarning ahamiyati	144
<i>Rahmonov Ulug`bek</i>	
Жисмоний тарбия дарсларида педагогик фаол методларнинг аҳамияти ва натижадорлиги	146
<i>Уткир Ахадович Бозоров</i>	
Мактабгача ёшдаги болалар учун ҳаракатли ўйинларнинг аҳамияти	149
<i>Ахунов Умидбек Рузибаевич</i>	
Компетентность воспитателя в организации занятий изобразительной деятельности	151
<i>Таджибаев Салимжон Сабиржанович, Сулейманова Эльвина Радик кизи</i>	
Boshlang`ich ta`lim jarayonida o`quvchilarda divergent tafakkurni rivojlantirish usullari	154
<i>Yo`ldoshev Jahongir Tilakmurodovich</i>	
Boshlang`ich sinf o`quvchilari divergent tafakkurini tashxislash usullari	157
<i>Yo`ldoshev Jahongir Tilakmurodovich, Tirkashev Muhiddin Safarovich</i>	
Олий таълим жараёнида табақалаштирилган ёндашувни жорий этиш масалалари	160
<i>Чоршанбиев Зафар Эсанпулатович</i>	
Педагогик фаолиятларда инновацион технологиялардан фойдаланиш	163
<i>У.М.Фармонов, Н.А.Исмамов</i>	
Tarbiyachilar mediakompetentligini rivojlantirish mazmuni	165
<i>G.Kushakova, M.Sarimsoqova</i>	
Oilada bolalarga iqtisodiy tarbiya berish	168
<i>G.Kushakova, S.Fayziyeva</i>	
Bolalarni maktabga tayyorlashda maktabgacha tarbiya tashkiloti va maktab hamkorligi	171
<i>M.Zoirova</i>	
Topishmoqlar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirish	175
<i>J.Atamurodova</i>	
Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishini tashkil etish pedagogik muammo sifatida	179
<i>K.X.Xummatova., J.B.Ergashev</i>	
Termodinamika fanini o`qishning samaradorligini oshirish usullari	181
<i>Komilova Nodira Abduraxmon qizi</i>	
Boshlang`ich sinf o`quvchilarining kognitiv faoliyatini tashkil etish usullari	184
<i>Xolmo`minova Bahora Abdujalolovna</i>	
Ta`limda innovatsiya va innovatsion faoliyat	186
<i>Ergashev Baxtiyor Abloqulovich</i>	
Maktabgacha ta`lim va tarbiya sohasida amalga oshirilgan islohotlarning mazmun-mohiyati	189
<i>Qilichova Marhabo Xudoyqulovna</i>	
Maktabgacha ta`lim va tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish –davr talabi	193
<i>Berkinova Charos Islomovna</i>	
Ta`lim jarayonida o`qitishning psixologik xususiyatlari	197
<i>Xamdamova X.SH</i>	
Классификация методов инновационного обучения	200
<i>Абдувахобова Д.Э</i>	
Новые педагогические технологии в преподавании русского языка	204
<i>Зияева М.Ф</i>	
Психологические особенности обучения в процессе образования.	207
<i>Мардонов Р</i>	
Chuvstvitel'naya izmeritel'naya sxema dlya zondovix preobrazovateley v'lajnosti	209
<i>Israilov Faxriddin Murodqosimovich<sup>1</sup>, Isomiddinov Shohruh O'tkirjon</i>	
Инновационный подход к образованию	214

**“TA‘LIM TIZIMIDA FAN, INNOVATSIYA VA RAQAMLI IQTISODIYOTNI  
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI”**

**Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi (2021-yil, 20-noyabr) materiallari.  
Jizzax 2021. 753 bet**

**Manzil**

Jizzax shaxar, 100130, I. Karimov shoh ko‘chasi  
6-uy,  
Tel: (37222) 60823 Faks: (37222) 61015  
e-mail: [jizzax\\_markaz@xtv.uz](mailto:jizzax_markaz@xtv.uz),  
[jiz.malakaoshirish@exat.uz](mailto:jiz.malakaoshirish@exat.uz)

**QR kod  
Telegram gruruhi**



**QR kod  
Telegram kanali**

